



## QATAR DAVLATIDAGI ISLOM MOLIYA MUASSASALARI VA ULARDA MOLIYAVIY HISOB STANDARTLARINING QO'LLANILISHI

**Jiyanov Uktam Panjiyevich**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

ORCID: 0000-0001-7711-6659

[uktam.jiyanov87@gmail.com](mailto:uktam.jiyanov87@gmail.com)

**Qudratova Laziza Ulug'bekovna**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

ORCID: 0009-0004-0097-7484

[lazizakudratova@gmail.com](mailto:lazizakudratova@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Qatar iqtisodiyotida islom moliyasining o'ri, Qatarda joylashgan islom moliya muassasalari, jumladan, islom banklari, islom sug'urta kompaniyalari va ularda amal qilinuvchi moliyaviy hisob standartlari haqida so'z boradi. Qatarda qo'llanilgan moliyaviy hisob standartlarining qonuniy asoslari yoritiladi. Qatar qonunchiligidagi tijorat tashkilotlari va islom moliya muassasalariga nisbatan moliyaviy hisobni qo'llash qoidalari ko'rib chiqiladi va mamlakatda qanday qilib ikki xil moliyaviy hisob standartlaridan foydalanilganligi ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy hisob, buxgalteriya, islom banklari, tijorat tashkilotlari, islom sug'urta kompaniyalari, AAOIFI standartlari, IFRS standartlari.

## ИСЛАМСКИЕ ФИНАНСОВЫЕ ИНСТИТУТЫ В ГОСУДАРСТВЕ КАТАР И ПРИМЕНЕНИЕ В НИХ СТАНДАРТОВ ФИНАНСОВОГО УЧЕТА

**Жиянов Уктам Панжиевич**

*Международная исламская академия Узбекистана*

**Кудратова Лазиза Улугбековна**

*Международная исламская академия Узбекистана*

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль исламских финансов в экономике Катара, исламские финансовые институты, расположенные в Катаре, в том числе исламские банки, исламские страховые компании и используемые в них стандарты финансового учета. Будет рассмотрена правовая основа стандартов финансового учета, используемых в Катаре. В нем рассматривается применение правил финансового учета в катарском законодательстве к коммерческим организациям и исламским финансовым учреждениям, а также показано, как в стране используются два разных стандарта финансового учета.

**Ключевые слова:** финансовый учет, бухгалтерский учет, исламские банки, коммерческие организации, исламские страховые компании, стандарты AAOIFI, стандарты МСФО.

## ISLAMIC FINANCIAL INSTITUTIONS IN THE STATE OF QATAR AND APPLICATION OF FINANCIAL ACCOUNTING STANDARDS IN THEM

**Jiyanov Uktam Panjiyevich**

*International Islamic Academy of Uzbekistan*

**Kudratova Laziza Ulugbekovna**

*International Islamic Academy of Uzbekistan*

**Abstract.** *This article discusses the role of Islamic finance in Qatar's economy, Islamic financial institutions located in Qatar, including Islamic banks, Islamic insurance companies, and the financial accounting standards used in them. The legal basis of the financial accounting standards used in Qatar will be covered. It examines the application of financial accounting rules in Qatari law to commercial organizations and Islamic financial institutions and reveals how two different financial accounting standards are used in the country.*

**Keywords:** *financial accounting, accounting, Islamic banks, commercial organizations, Islamic insurance companies, AAOIFI standards, IFRS standards.*

### **Kirish.**

Jahon miqyosida islom moliyasining ahamiyati kundan-kunga oshib, jadal sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Bu ijobiy tendensiya sababli islom moliyasiga aloqador bo'lgan turli masalalar kun tartibiga chiqmoqda. Jumladan, islom moliya muassasalarida qanday moliyaviy hisob standartlarini qo'llash lozimligini tahlil qilish ko'plab munozaralarga sabab bo'lmoqda. Bu borada ba'zi mamlakatlar o'zlarining milliy standartlarini ishlab chiqqan bo'lsa, ba'zilari islom moliya muassasalari uchun buxgalteriya va audit tashkiloti – AAOIFI standartlarini qo'llashni afzal ko'rmoqdalar, boshqalar esa xalqaro miqyosda tan olingan boshqa standartlarni ustun ko'rishmoqda. Shu bois, turli mamlakatlarning bu boradagi modellarini o'rganish, tahlil qilish va xulosalar chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Qatardagi islom moliya muassasalarida moliyaviy hisob standartlarining qo'llanilish siyosatini tahlil qilishga e'tibor qaratilgan.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Islom moliya muassasalari moliyaviy hisobotlarida qaysi standartdan foydalanish borasida ko'plab bahslar mavjud.

Shahul Hameedning fikricha, bu savolga yuqori darajadagi javob shundan iboratki, bu islom moliya institutlari (IMI) amaldagi Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari (IFRS) asosidagi kapitalistik dunyoqarashga asoslanmagan. An'anaviy buxgalteriya hisobi qaror qabul qilishning foydali asosiga tayangan bo'lsa, islomiy buxgalteriya hisobi "barcha manfaatdor tomonlarning huquq va majburiyatlarini, shu jumladan, to'liq bo'lmagan bitimlar va boshqa hodisalar natijasida kelib chiqadigan huquq va majburiyatlarni aniqlashga intiladigan shariatga muvofiq javobgarlik tizimiga asoslanadi (Ibrahim, Hameed, 2007). A.Arwani AAOIFI buxgalteriya hisobi standartlari IMIning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi va ularning turli ehtiyojlarini qondirish uchun kuchli qurilmaga aylanishi mumkin bo'lgan qo'llanma bo'lib xizmat qiladi, deb hisoblaydi (2019).

Biroq AAOIFI hali ham bir qancha muhim muammolarga duch kelmoqda. A'zolar sonining ko'payishiga qaramay, AAOIFIning tashkil etilishi shunchaki nom bo'lib, u standart kuchga ega emas. "Islom moliya tashkilotlari ba'zi operatsiyalarni turli yo'llar bilan hisobot qilishi va oshkor qilishi mumkin, bu esa keyinchalik ushbu institutlarning o'zlari uchun hamda umuman islom moliyasining rivojlanishi uchun muammolarni keltirib chiqaradi" - deydi A.Suandi

(2013). Siswantoro va boshqalarning fikricha, AAOIFI tomonidan chiqarilgan ko'rsatmalar. Biroq ba'zi olimlarning ta'kidlashicha, bu ko'rsatmalar haqiqiy "islom hisobi standartlari" sifatida emas, balki islom moliya institutlarida buxgalteriya hisobi tamoyillari sifatida ko'rib chiqilishi kerak (Siswantoro, 2013).

AAOIFIning texnik rivojlanish bo'yicha direktori Xayrul Nizomning so'zlariga ko'ra, "ikki standart to'plami o'rtasida bo'shliqlar va farqlar mavjudligi aniq va bundan keyin ham shunday bo'ladi. Ushbu bo'shliqlar va farqlar IASB va AAOIFIning turli xil tuzilmaviy maqsadlarining tabiiy natijasidir. AAOIFI vakolati UFRS islom banking o'ziga xos xususiyatlariga mos kelmasa yoki shariatga rioya qilish muammolariga olib keladigan standartlarni ishlab chiqishdan iborat. Islomiy va an'anaviy bank va moliya amaliyotlari o'rtasida iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy tafovutlar mavjud ekan, chiqarilgan standartlarda ham farqlar bo'ladi" (Ibrahim, Hameed, 2007).

Boshqa bir tadqiqotda, N. Mohammed va boshqalar Malayziyadagi islom moliya institutlari (IFI) hisobotlarida islomiy buxgalteriya standartlariga bo'lgan ehtiyojni ko'rib chiqadi (Mohammed, Fahmi, Ahmad, 2015). Ularning IFI yetakchi xodimlari bilan suhbatlar asosida olib borgan tadqiqotlari AAOIFI buxgalteriya hisobi standartlarining hisobot berishga ta'sirini ochib beradi. So'rovnomaning ba'zi ishtirokchilari IMI haqida hisobot berish uchun Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlaridan (IFRS) foydalanish maqsadga muvofiqligini e'tirof etishsa-da, ko'pchilik Islom shartnomalarida Islom tamoyillariga rioya qilish muhimligini ta'kidlaydi.

Ahmed M.U., Sabirzyanov R. va Rosman R. AAOIFI va IFRS bo'yicha Murabaha shartnomalarini hisobga olish va hisobot berish usulini ko'rib chiqdilar, ularning natijalari shuni ko'rsatadiki, IFRS iqtisodiy oqibatlariga e'tibor qaratgan bo'lsa, AAOIFI shariat tamoyillariga asoslangan huquqiy tuzilmani ko'rib chiqadi, natijada farqlar paydo bo'ladi (2016).

Quyida esa IFRS va AAOIFI yonma-yon qo'llanilayotgan Qatar davlatining vaziyati ko'rib chiqiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlar yig'ish, umumlashtirish, taqqoslash usullari qo'llangan. Mavzuga doir qonunchilik o'rganilib, real vaziyatga solishtirilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Aholi jon boshiga YaIMning taqsimlanishi bo'yicha dunyoda 5-o'rinda turuvchi (GDP per Capita, 2022) Qatarda islom moliyasi shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, Qatar iqtisodiyoti 2023-yilda 1,8 foizga o'sgan (Report, 2023). Islom moliyasining utun iqtisodiyotdagi ulushi ham oshib bormoqda.

2023-yilda Qatardagi jami islomiy moliya aktivlari taxminan 656 milliard Qatar riyoli (180 milliard AQSh dollari)ga baholanib, o'sish sur'ati 3,3 foizni tashkil etdi. Ushbu aktivlarning 87,6 foizi islom banklariga to'g'ri keladi, islom sukuki ulushi 11,1 foizni, "Takaful" sug'urta kompaniyalari 0,7 foizni tashkil etdi, qolgan qismi investitsiya fondlari va boshqa islom moliya institutlari o'rtasida taqsimlanadi (Report, 2023).

Qatardagi islom moliya sektori xilma-xil bo'lib, to'rtta asosiy sektordan iborat: Islom banklari, "Takaful" sug'urta kompaniyalari, islomiy moliya kompaniyalari va islom investitsiya kompaniyalari, bundan tashqari Islomiy sukukda taqdim etilgan islom moliyasi mahsulotlari, investitsiya fondlari va indekslar. Ushbu moliya sektorlarida faoliyat yurituvchi ushbu muassasalar Qatar Markaziy banking bevosita nazorati ostida faoliyat yuritadi. Bundan

tashqari, ayrim moliya institutlari Qatar moliya markazi doirasida islomiy moliya faoliyatini olib boradi (Report, 2023).

Qatar islom moliyasi institutlari turli moliyaviy standartlardan foydalangan holda o'zlarining moliyaviy hisobotlarini tayyorlaydilar.

Qatar davlatining 2015-yil 11-sonli "Tijorat kompaniyalari to'g'risida"gi qonuni (Qonun, 2015)ga muvofiq tijorat kompaniyalari, shu jumladan, banklarva boshqa moliyaviy tashkilotlar IFRS (Moliyaviy hisobot tuzishning xalqaro standartlari) va IAS (Xalqaro buxgalteriya standartlari)ga muvofiq o'z moliyaviy hisobotlarini tuzadilar. Bu yuqoridag qonunning 269-bandida o'z aksini topadi: "Holding har bir moliyaviy yil oxirida o'zi va uning barcha filiallari uchun xalqaro miqyosda qabul qilingan buxgalteriya hisobi va audit amaliyoti standartlariga muvofiq konsolidatsiyalashgan buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risida hisobot va pul oqimlari haqidagi hisobotni tuzadilar va umumiy yig'ilishda ularga qo'shimcha ravishda tushuntirishlar va tafsilotlarni qo'shimcha ravishda taqdim etadilar".

Yuqoridagi qonunga 2021-yildagi 8-sonli qonun bilan qo'shimchalar kiritilgan bo'lsada, moliyaviy hisobotga doir bandlarda jiddiy o'zgarish kuzatilmagan.

Shuningdek, Qatar Markaziy banki (QCB)ning 2013-yil sentyabr oyidagi "Banklar uchun yo'riqnomasi"ning 2/1-bandida ham barcha tijorat va ixtisoslashtirilgan banklar moliyaviy ma'lumotlarni (moliyaviy hisobotlarni) tayyorlashda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga rioya qilishlari kerakligi aytiladi.

Qatar davlatida islom moliya tashkilotlari uchun alohida qonun-qoidalar amal qiladi. Shuningdek, Qatar Markaziy banki (QCB)ning 2013-yil sentabr oyidagi "Banklar uchun yo'riqnomasi"ning 2/2/1-bandida "Islom banklari Islom moliya institutlari uchun Buxgalteriya Hisobi va Audit Tashkiloti (AAOIFI) tomonidan chiqarilgan buxgalteriya hisobi standartlarini buxgalteriya siyosati va muolajalariga, moliyaviy hisobotlarni va tegishli ochiqmalarni tayyorlashga tatbiq etishlari kerak"ligi aytilgan.

Takoful kompaniyalari esa Qatar Moliya Markazi Boshqaruv Organi tomonidan chiqarilgan 2006-yildagi "Sug'urta Biznesi qoidalari"ning 8/4/2-bandiga muvofiq AAOIFI standartlarini qo'llagan holda moliyaviy hisobotlar tuzishi kerak.

Boshqa islom moliya tashkilotlari esa bu qoidalarga tushmagani uchun IFRS standartlaridan foydalanadi.

Islom banklari AAOIFI buxgalteriya standartlaridan foydalansada, Qatar Markaziy Banki ular uchun moliyaviy hisobotning namunaviy shakllarini belgilab bergan.

Qatarning 4 ta eng yirik banklari Tabinsights.com nashrining 100 ta eng kuchli banklar reytingiga kiradi, ular Qatar Islamic bank, Qatar International Islamic Bank, Dukhan Bank va Masraf Al Rayan banklaridir. Quyida ushbu banklar va ular qo'llaydigan buxgalteriya standartlari va buxgalteriya siyosati haqida so'z yuritiladi.

**Qatar Islamic Bank.** QIB 1982-yilda Qatardagi birinchi islom banki sifatida tashkil etilgan. QIB hozirda Qatarning eng yirik islom banki va dunyodagi to'rtinchi islom banki bo'lib, 2023-yilda jami aktivlari 189 milliard Qatar riyolini tashkil etgan bo'ib, bu Qatardagi islom banki aktivlarining 35,7 foizini va Qatardagi jami bank bozorining 10 foizini tashkil etadi. QIBning Qatarda 23 ta filiali bor. 2023-yil oxiriga kelib aktsiyadorlarning kapitali 25,4 milliard Qatar riyoliga yetdi (Report, 2023).

**Qatar Xalqaro Islom Banki (QIIB).** QIIB 1990-yilda tashkil etilgan. 2023-yilda QIIBning jami aktivlari 61,6 milliard QARni tashkil etdi, bu islom banklari aktivlarining 11,6 foizini va Qatar bank sektori jami aktivlarining 3 foizini tashkil qiladi. QIIB aktsiyadorlik kapitali 7,4 milliard QARga yetdi. QIIB bosh qarorgohi va 16 ta mahalliy filiallari orqali islomiy moliya xizmatlari va mahsulotlarini, shuningdek, individual va korporativ mahsulotlarni taqdim etadi. QIIB aksiyalari Qatar fond birjasida joylashtirilgan (2023).

**Dukhan Bank.** 2009-yilda “Duhan Bank” shariat qoidalariga muvofiq bank xizmatlari va mahsulotlarini taqdim etish maqsadida “Barwa Bank” nomi ostida integratsiyalashgan Islom banki sifatida ish boshlagan. 2019-yil aprel oyida Dukhan bank Qatar xalqaro banki bilan birlashtirildi va 2020-yil oktyabr oyida Dukhan bank o‘zining yangi identifikatorini eskisi bilan almashtirib, “Duhan Bank” nomini oshkor qildi. “Dukhan” bank o‘zining asosiy filiali va to‘qqizta mahalliy filiali orqali o‘z xizmatlarini ko‘rsatadi. 2023 yil oxiriga kelib, Dukhan banking aktivlari 114,4 milliard rialni tashkil etdi, bu Qatardagi islom banklari aktivlarining 21,6 foizini va bank sektori jami aktivlarining 6 foizini tashkil qiladi. Aksiyadorlarning kapitali 12,9 milliard rialni tashkil etdi (Report, 2023).

**Masraf Al Rayan.** Masraf Al Rayan 2006-yilda jismoniy shaxslar va kompaniyalarga bank xizmatlari va mahsulotlarini hamda xususiy bank xizmatlarini taqdim etish uchun integratsiyalashgan islom banki sifatida tashkil etilgan. 2021-yil 30-noyabrda Masraf Al Rayan Al Khalij Tijorat Banki bilan birlashdi. Uning jami aktivlari 164,2 milliard Qatar riyoliga teng bo‘lib, Qatar islom banklari aktivlarining 31 foizini va bank sektori jami aktivlarining 8 foizini tashkil qiladi. Masraf Al Rayan o‘z xizmatlarini Qatardagi 16 ta mahalliy filiallari orqali taqdim etadi va xorijiy va mahalliy bank va investitsiya kompaniyalariga egalik qiladi. Masraf Al Rayanning aksiyalari Qatar fond birjasida joylashgan. 2023-yil oxiriga kelib Masraf Al Rayan aksiyadorlik kapitali 23,5 milliard Qatar riyoliga yetdi.

Yuqorida keltirilgan banklarning 2023-yil yakuni uchun konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar Qatar Markaziy banki (QCB) tomonidan tahrirlangan Islom moliya institutlari uchun Buxgalteriya hisobi va audit tashkiloti (AAOIFI) tomonidan chiqarilgan Moliyaviy Hisob Standartlariga (FAS), Guruhning Shariat Qo‘mitasi tomonidan belgilangan Islom shiati qoidalari va tamoyillariga, Qatar davlatining 2015-yil 11-sonli “Tijorat kompaniyalari to‘g‘risida”gi qonuniga va ushbu qonunga 2021-yildagi 8-sonli qonun bilan kiritilgan qo‘shimchalarga muvofiq tayyorlangan (Annual report, 2023).

Qatar Markaziy Banki sirkulyarlar orqali bir nechta o‘zgartirishlar chiqargan, eng muhim o‘zgartirishlar 2020-yil 29-apreldagi № 12/2020 bo‘lib, u 33 – “Sukukga investitsiyalar, aksiyalar va moliyaviy hisobot standartlari” va 9-sonli “Moliyaviy vositalar” xalqaro moliyaviy hisobot standartining kapitalga nisbatan tamoyillariga rioya qilishni talab qiluvchi 30 – “Qimmatsizlanish, kredit yo‘qotishlar va og‘ir majburiyatlar” buxgalteriya hisobi standartlariga o‘zgartirishlar kiritadi.

Bundan tashqari, Qatar Markaziy Banki 2020-yil 12-sonli sirkulyar orqali 1 – “Islom banklari va moliya institutlarining moliyaviy hisobotlarida umumiy taqdimot va oshkor qilish” talabini retrospektiv qabul qilish va buxgalteriya siyosatidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lgan oshkor qilish bo‘yicha o‘zgartirish kiritadi. Yuqoridagi banklar yuqorida ko‘rsatilgan qoidalarni tan oladi va amal qiladi.

AAOIFI standartlari yoki tegishli yo‘riqnomalari mavjud bo‘lmagan masalalarda Guruh tegishli Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini (“IFRS”) qo‘llaydi (Masraf Al Rayan, 2023).

Qatar sug‘urta kompaniyalari haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, Qatar Islom sug‘urta kompaniyasi (QIIC), Al-Khaleej Takaful sug‘urta kompaniyasi, Doha Takaful kompaniyalari Qatardagi eng yirik takoful kompaniyalari hisoblanadi.

**Qatar Islom sug‘urta kompaniyasi (QIIC)** 1993-yilda tashkil etilgan. Guruh aksiyalari Qatar fond birjasida joylashgan. 2023-yil oxiriga kelib, guruh aksiyadorlarining kapitali 530 million Qatar riyolini tashkil etdi.

**AlKhaleej Takaful sug‘urta kompaniyasi.** Al-Khaleej sug‘urta va qayta sug‘urta kompaniyasi 1978-yilda an’anaviy sug‘urta kompaniyasi sifatida tashkil etilgan. 2010-yilda Al-Khaleej sug‘urta kompaniyasi integratsiyalashgan Islom sug‘urta kompaniyasiga aylantirilgan.

2023-yilda aksiyadorlarning kapitali 597 million Qatar riyolini tashkil etdi. Kompaniyaning aktsiyalari Qatar fond birjasida joylashtirilgan.

**Doha Takoful.** 2006-yilda Doha sug'urta kompaniyasi sug'urtaning barcha sohalarida sudxo'rliksiz islom tamoyillariga muvofiq sug'urta va qayta sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun "Doha Takaful" savdo belgisi ostida Islomiy Takaful sho'ba korxonasini tashkil etdi. 2018-yilda Doha Insurance "Doha Takaful" ni to'liq Doha Insurance Groupga tegishli mas'uliyati cheklangan jamiyat sifatida ro'yxatdan o'tkazdi. Doha Takafulning umumiy aktsiyadorlik kapitali 2023-yil oxiriga kelib 179,6 mln. Qatar riyolini tashkil etdi.

Qatar Islom sug'urta kompaniyasi (QIIC) va Al-Khaleej Takaful sug'urta kompaniyasi takoful kompaniyasi sifatida ro'yxatdan o'tganligi sababli hisobotlarini AAOIFI standartlari asosida tayyorlaydi. Doha takoful esa Doha sug'urta kompaniyasining sho'basi bo'lgani uchun, Doha sug'urta kompaniyasining boshqa sho'balari boshqa turli xizmatlar, jumladan ko'chmas mulk, lizing, axborot xizmatlarini ko'rsatgani uchun va sho'ba korxonalar turli mamlakatlarda joylashganligi sababidan o'z hisobotlarini AAOIFI emas, IFRS standartlari asosida tayyorlaydi.

Brokerlik xizmatlarini ko'rsatuvchi INMA holding company (oldingi nomi Islamic holding group) ham Qatarda faoliyat yurituvchi mashhur kompaniyalardan biri hisoblanadi va Qatar birjasida xizmat ko'rsatadi. Bu kompaniya bank yoki islomiy sug'urta kompaniyasi bo'lmaganligi sababli, AAOIFI standartlarini o'z moliyaviy hisobotlariga tatbiq etishga majbur emas. Shu sababdan bu kompaniya o'z moliyaviy hisobotlarini IFRS standartiga muvofiq tayyorlaydi (Financial report, 2023).

### Xulosa va takliflar.

Qatar davlati qonunchiligi tijoriy tashkilotlar o'z moliyaviy hisobotlarini IFRS standartlariga muvofiq tayyorlashlarini talab qiladi. Ammo Qatar Markaziy Banki islom banklarini AAOIFI moliyaviy hisob standartlariga muvofiq hisobot topshirishlarini belgilab qo'ygan. Takoful kompaniyalari ham AAOIFI standartlariga muvofiq hisobot topshirishi kerak hisoblanadi. Ammo bank yoki sug'urta kompaniyasi bo'lmagan boshqa kompaniyalar AAOIFI standarti bo'yicha hisobot tayyorlashi shart emas, IFRS standarti ular uchun yetarli hisoblanadi. Islom banklari va takoful kompaniyalarida AAOIFI standartidan foydalanilsada, Qatar Markaziy Banki ularga hisobot topshirish shakllarini belgilab beradi. Qatardagi bu siyosat bir necha afzallik va kamchiliklarga ega:

- islom moliya instrumentlarini AAOIFI standartlari orqali aks ettirish qulayroq va bu ularning asl mohiyatini ochib berishga yordam beradi, ammo AAOIFI standartlarini qo'llash moliyaviy hisobotlarni an'anaviy banklar bilan taqqoslash imkoniyatlarini cheklaydi;

- mamlakatda IFRS standartlarini keng ravishda qo'llanilishi mamlakat iqtisodiyoti ochiq va yanada jozibador qiladi, dunyo miqyosida bu moliyaviy hisobotlarni tushunishni va taqqoslashni osonlashtiradi;

- banklar va takoful kompaniyalaridan boshqa tashkilotlarda nisbatan kamroq yoki soddaroq moliyaviy instrumentlar qo'llaniladi, shu tufayli ular AAOIFI standartiga amal qilishi shart emas va bunday kompaniyalarda IFRS qo'llanilishi uning taqqoslanish qobiliyatini oshiradi;

- Qatar hukumatining AAOIFI standartlaridan foydalanuvchi kompaniyalar uchun ishlab chiqqan hisobot shakllari mamlakatda hisobotlar xilma-xilligini va ularni tushunish va taqqoslash qiyinligining oldini oladi va mamlakatdagi moliyaviy hisobotlar atmosferasini samaraliroq va jozibaliroq qiladi.

**Adabiyotlar/Литература/Reference:**

Ahmed M.U., Sabirzyanov R., Rosman R. (2016) A critique on accounting for Murabaha Contract', *Journal of Islamic Accounting and Business Research*, 7(3), pp. 190-201.

Annual report. QIB. (2023) <https://www.qib.com.qa/en/investorrelations/financial-information/annual-reports/>

Arwani A. (2019) The implementation of IFRS in Indonesian Islamic accounting. *Journal of Economics, Business, and Accountancy Ventura* Vol. 21, No. 3, December 2018 – March 2019, pages 361 – 37.

Financial Reports, (2023). <https://inma.qa/financial-reports/>

Financial statement (2023) Consolidated financial statements for the year ended 31 december 2023. Qatar International Islamic Bank (Q.P.S.C.). <https://www.qiib.com.qa/search/?q=consolidated%20financial%20statements>

Financial statement (2023) Consolidated financial statements for the year ended 31 December 2023. Dukhan Bank. Q.P.S.C. <https://www.dukhanbank.com/investor-relations/financial-information>

Financial statement (2023) Consolidated financial statements for the year ended 31 December 2023. Masraf Al Rayan. Q.P.S.C. <https://www.alrayan.com/en/investor-relations/financial-information/financial-statements>

Financial statement (2023) Consolidated financial statements for the year ended 31 December 2023. QIIB. Q.P.S.C. <https://www.qiib.com.qa/search/?q=consolidated%20financial%20statements>

GDP per Capita. (2022) [https://www.worldometers.info/gdp/gdp-per-capita/#google\\_vignette](https://www.worldometers.info/gdp/gdp-per-capita/#google_vignette)

Ibrahim M., Hameed Sh. (2007) IFRS vs AAOIFI: The Clash of Standards? *International Centre for Education in Islamic Finance*. March.

Mohammed N.F., Fahmi F.M., Ahmad A.E. (2015) The influence of AAOIFI Accounting Standards in reporting Islamic financial institutions in Malaysia. *Procedia Economics and Finance*, 31, pp. 418-424.

Qonun, (2015) Qatar davlatining 2015-yil 11-sonli "Tijorat kompaniyalari to'g'risida"gi qonuni, 269-band. <https://www.almeezan.qa/LawArticles.aspx?LawTreeSectionID=16896&lawId=6656&language=ar>

Report (2023). *Islamic finance in Qatar. Publication Series by Bait Al-Mashura Finance Consultations*. P. 22.

Siswantoro D., Ibrahim S.H. (2013) Should Islamic Accounting Standard Follow to international financial reporting standards (IFRS)? A lesson from Malaysia. *Media Riset Akuntansi, Auditing & Informasi*. 13(1), pp. 35-58.

Suandi A. (2013) *Islamic Accounting in Indonesia: A Review from Current Global Situation*. Waseda University Repository.